



BOSHQARUV VA TA'LIMNING ASOSIY TAMOYILLARI.

Dadajanov Arafatali Komiljanovich

PhD.Dotsent

Namangan Davlat texnika universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20052497>

ARTICLE INFO

Received:1st May 2026

Accepted: 5th May 2026

Published:6th May 2026

KEYWORDS

Boshqaruv,ta'lim,tamoyil,adolat,ishonch,tayanch,taraqqiyot.

ABSTRACT

Maqolada ko'plab yetakchilik sohasidagi muammolarni tamoillari keltirilgan. Bu muammolarni kelib chiqish sabablari o'rganilgan. Muammoni yechishda tarihg nazarsolinib. Ko'plab diniy yetakchilarning faoliyati o'rganilgan. O'rganish natijasida boshqaruvning eng asosiy uch tamoili aniqlanib ko'plab sohalarga shu bilan birga ta'lim sohasiga taklif etilgan. Ularning hayotga joriy etilishi katta samaradorlik keltirishi aytib o'tilgan.

Asosiy qism

Har bir davlat o'tish davrida jamiyatga yangi g'oyalarni singdirishda, yoshlarga ta'lim berishda va boshqaruv jarayonlarini yaxshilashda ko'plab muammolarga duch keladi.

Ayniqsa, sho'ro davridagi boshqaruv tizimini noto'g'ri shakllantirilganligi, prinsipial jihatdan adolatsiz bo'lganligi, ta'lim puch g'oyalar ustiga qurilishi natijasida, jamiyat ongining zaharlanishi oqibatida, davlat tuzumi qulashi va natijada odamlar orasida, turli qarashlar vujudga kelishi natijasida, tarbiyada va boshqaruvda keskin kamchiliklar borligi ko'zga tashlandi.

Mustaqil bo'lganimizga chorak asrdan oshgan bo'lsada, odamlarning arosatda qolishi davom etdi. Bunga sabab, sobiq ittifoq g'oyalariidan kechgan bo'lsakda, uning asoratlari uzoq vaqt oramizda qolib ketdi. Yillar davomida boshqaruv va ta'lim tizimlari deyarli eskichasiga yuritilib kelindi.

Bundan tashqari, o'tish davridagi ko'plab g'oyalardan voz kechish, ongni yangilari bilan to'ldirish uchun ko'pgina rivojlangan davlatlar usul va uslublaridan foydalanish, ta'lim va tarbiya metodlarida gibrit holatlarini vujudga keltirdi. Bunday holatda o'sib ulg'aygan bola, katta bo'lganda jamiyatdagi o'zining ijtimoiy o'rnini topishda va o'zining hayotini qurishda arosat holatga tushib qolishi turgan gap.

Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni vujudga keltiradigan omillardan biri bu bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'lib, bunday holatda "Avval iqtisod keyin siyosat" iborasi ustun kelganligi sababli, yoshlarni ta'lim-tarbiyaga jalb qilishda, barcha usullar o'zini oqlamaydi. Bunday holatda bolaga ta'lim va tarbiya berishda qanday yo'l tutish lozim? Bu savolga javob toppish uchun tarihg nazarsolaylik. Chunki, tarih kelajakdagi hatolarni to'g'rilashda va aniq

yo'lni tanlashda katta yordam beradi. Uzoq muddat ko'plab to'siqlarga uchrashimizga qaramay, ongimizda saqlanib kelayotga diniy yo'ndashuvga nazar solaylik.

Hozirda hamma etirof etgan dinlardan asl tarihgaga ega bo'lganlari - yahudiylik, nasarolik va Islom dinlari tarihgaga nazar solaylik[5]. Bu dinlar ta'limotiga ko'plab yillar va tazyiqlar bo'lganiga qaramasdan, ularning g'oyalari ta'limi va tarbiyaviy ahamiyati kamayish o'rniga, halqlarning ongida saqlanib va ezozlanib kelinmoqda.

Bu dinlar yetakchilari qanday yo'l tutdilar, ularning targ'ib qilgan g'oyalari ular vafotidan so'ng ham rivojlanib kengayib bormoqda.

Yuqoridagi din yetakchilari ko'plab halqlarni o'zlari ortidan ergashtira bildilar va ta'limlarini uzoq yillar davomida keng yoyilishiga sababchi bo'ldilar. Ularni o'rganishdan oldin, ularni shahslariga etibor beraylik. E'tirof etilishicha ularning shahslari toza, hurmatga loyiq bo'lgan. Ularning obro'lari, xulq-atvorlari, bilimlari va tarbiyalari bilan boshqalardan yuqoriroq bo'lganligi, yani insonlar ichidan shu jihatlari tufayli tanlab olinganliklari, zamonasining mos va ilg'or jihatlari o'zida mujassam etganligi manba'larda keltirilgan.

Muso payg'ambar o'z davrlarida eng rivojlangan davlatning, eng yuksak olimlari jamlangan saroyda ta'lim oldilar. Tabiatlari jihatidan juda iboli, notiqlik sana'tiga ega bo'lmagan, ammo o'z davrining barcha ilg'or ilmlari sohibi bo'lganlar. O'z davrida Misr, katta ilmiy salohiyatga ega bo'lganligi bois, u zotning qanday ilm sohibi bo'lganliklarini tasaavvur qilish qiyin emas. Islom manbaalarida u zotning barcha dunyoviy ilmlar sohibi deb e'tirof e'tilgan[1]. Bundan tashqari u zotga diniy g'oyalarni targ'ib qilishda ilohiy kuch yordam berganligi va yo'l ko'rsatganligi barchamizga ma'lum. O'sha davrda sehr-jodu va ko'zbo'yamachilik rivojlanganligi bois, Muso a.s. ga ularni yengish uchun katta ilmiy salohiyat ato e'tildi. Bunday salohiyat ilmga tayanilganligini, sehrarlar boshlig'i tan olib, Muso a.s. targ'ib qilgan g'oyaga ergashdi. Shundan so'ng Firavnni yengdilar. Bu esa xalqning ishonchini qozonishga sabab bo'ldi. Jamiyat va xalq u zotni yetakchi deb tan oldi. Shundan so'ng ikkinchi qilgan ishlari, noxaq jabrlanganlarni, o'z xaqlarini qaytarib olishlariga yordam berdilar ya'ni, adolat bilan har bir ishga yodashdilar. Davlatchilikda g'oyani teng yoyilishi va amal qilinishi uchun u zotga ilohiyot tomonidan qonunlar majmuasi - Tavrot tushirildi. Bu esa, jamiyatni to'g'ri va adolatli boshqarish uchun adolatli qonunlar zarur ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bu oddiy xalq va zodagonlar orasida qonunni barobar ishlashini ta'minladi.

Navbatdagi qilgan ishlari jamiyatdagi barcha, insonparvarlik g'oyalari oldida bir ekanligini, jamiyatda barqarorlik hukum surishi uchun davlat ijtimoiy adolatni yo'lga qo'yishi lozimligini ta'kidladilar. Ya'ni zakotni joriy etdilar. Bu bilan kambag'al va ojiz xalq qatlamini himoyaladilar va insonparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar. Bu esa o'z navbatida oddiy xalq tayanchi bo'lib hizmat qildi. Yuqoridagi 3 bosqichli bajarilgan ishlardan so'ng jamiyat yetakchi tomonidan ilgari surilgan g'oyani jon deb qabul qildi va hozirgacha u zotning vafotlariga minglab yillar o'tgan bo'lsada bu ta'limot xalqlar orasida yashab, keng tarqalib bormoqda.

Keyingi bizga ma'lum din nasorolik dini ta'limotini o'rganadigan bo'lsak, o'sha davrlarda tabobat juda rivojlangan edi. Iso payg'ambarning otasiz dunyoga kelishlarining o'zi katta mo'jiza bo'lib, tibbiyotning ilg'or texnologiyalari mavjud ekanligini isbotladi, ilohiyot tomonidan bunday hodisa yuqori ilmiy dalilga ega ekanligi, odam ato va momo havolar otasiz va onasiz dunyoga kelganliklarini eslatib o'tilgan[2-3]. Bundan tashqari Iso a.s. ning go'daklik chog'larida gapira olishlari, odamni yuziga qarab uning nima taom tanovvul qilganligi va uyida qanday oziq-ovqat saqlashlarini aytib berishlari tabobatdagi yuqori ilmiy salohiyat egasi ekanliklarini bildirar edi. Bu esa u zotning yetakchi sifatida xalq orasida tan olinishlariga sabab bo'ldi, ya'ni odamlar ishonchini egallashlariga sabab bo'ldi. Bundan tashqari huddi

boshqa payg'ambarlar qatori yuqori ma'naviy jihatlarga ega inson bo'lganlar. U zotda yetakchi bo'lish uchun barcha asos borligini isbotladilar. Keyingi bosqichda ilohiyot tomonidan yangi qonunlar majmuasi, yani Injil tushirilishi bilan, eng mukammal g'oya va qonunlarni xalq ichida yoya boshladilar. Bu qonunlar jamiyatdagi noxaqliklarga chek qo'yar edi. Adolat o'rnatilishiga turtki berdi. Zolim yetakchilarni xalq oldida javob berishlarini qonun barchaga barobar ekanligini, siyosatni to'g'ri yuritilishiga sabab bo'ldi.

Keyingi bosqich, ijtimoiy tenglik bo'lib bu dinda ham zakot ehsonparvarlik tamoyillari ilgari surildi. Bu esa jamiyatni sog'lom bo'lishiga olib keldi. Ohirgi bosqichda diniy g'oyalarni targ'ib qilish bo'lib, yuqoridagi bosqichlardan so'ng jamiyat bu g'oyalarni bajoni dil qabul qildi va hozirga qadar keng yoyilib kelinmoqda.

Ohirgi din Islom dini yetakchisi Muhammad m.s.a.v. ni o'rgansak. Muhammad m.s.a.v yetimlikda katta bo'ldilar, madrasa ko'rmadilar. Ammo o'sha davrda arablar orasida juda qadrlanadigan hislatlarga ega edilar. Hatto u kishiga Amin deb tahallus qo'yishgan. O'z hamyurtlari orasida katta obro' qozongan edilar. Barcha payg'ambarlarda mujassam bo'lgan ma'naviy jihatlarga ega edilar. Muhammad m.s.a.v ning eng katta yutuqlari – xulqlari edi. Arablar bunday hislatni juda qadrlar edilar. Bundan tashqari ilohiyot tomonidan ularga berilgan ko'plab mo'jizalar tufayli yetakchilikka loyiq ekanliklarini isbotladilar.

Keyingi bosqichda Muhammad m.s.a.v ilohiyot tomonidan berilgan yangi qonunlar Quroni karim asosida jamiyatda adolatli tartib o'rnatdilar. Jamiyatda qonun ustivor bo'lishini ta'minladilar. Hatto o'z yaqinlari ham bu qonunga bo'sunmasalar qattiq jazolanishlarini, qonun barchaga barobar bo'lishini etirof etdilar.

Keyingi bosqichda yuqorida ta'kidlangan yetakchilar kabi ijtimoiy tenglik siyosatini yurgizdilar. Zakotni joriy etdilar.

Ohirgi bosqichda o'z g'oyalarni targ'ib qildilar, jamiyat buni jon deb qabul qildi va hozirga qadar bu g'oyalar keng yoyilib, ko'plab taaziqlarga uchrashiga qaramay kengayib bormoqda.

Boshqaruv qay yo'nalishda bo'lmasin ta'limiymi, davlatchilikmi yuqoridagi 3 tamoil asosida yo'lga qo'yilsa u bardavom va qabul qilinishi oson kechadi. Bu tamoyillar - **ishonch, adolat va tayanch** tamoyillaridir. Har qanday yetakchi usbu tamoyillardan foydalanib ish yuritsa, o'z samarasini berishi turgan gap.

Bu huddi oilada otaning o'rniga o'hshaydi. Ota oilada salohiyat jihatidan eng ishonchli va yetakchilikka loyiqdir. Oila a'zolarini oila qonunlariga bo'ysundira oladi, qonun ustivorligini ta'minlaydi. Oila a'zolarining barchasiga qiyin ahvolda birinchi bo'lib ko'mak beradi va barchani teng ko'radi. Shuning uchun oila a'zolari yetalchilari qaerga boshlasa, o'sha yerga ergashadilar, so'zsiz u tomonidan taklif etilgan har qanday ta'limotni qabul qiladilar.

Bu uch tamoyilga asosan ish ko'radigan yetakchi o'z talimi va g'oyalarini tez qabul qilinishiga va uning davomiyligiga erihadi.

Hozirgi davrda buni ta'lim sohasida shunday tushunish mumkin: jamiyatda muallimning obro'sini oshirish lozim, muallim ham o'z navbatida o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Nafaqat muallim, balki barcha boshqaruv sohalarida 3 tamoyilga amal qilinsa ish yuritish mehanizmi bir meyorga tushadi va boshqarish osonlashadi. Shu kunlarda Prezidentimiz ham shuni nazarda tutgan holda ta'limda yoshlarga nafaqat pedogogik (bolani yetaklash) jihatidan balki, ularni yo'naltirish yani boshqarish lozimligini bir necha bor ta'kidladilar. Qo'l ostidagilarni baholashda adolatli yondashish juda muhimdir. O'quvchilar orasida o'zini o'zligini namoyon qilmaslik lozim. Har qanday holatda ulardan sovga-salom olmaslik va ta'magirlik qilmaslik lozim bo'ladi. Ularni tayanchi sifatida qoloq o'quvchilar bilan

individual ishlashni yo'lga qo'yish va buni rag'batlantirish lozim bo'ladi. Kattalar va yoshlar orasida masofa saqlanishi juda katta ahamiyatga egadir. Yetakchi buning uchun o'zining boshqalardan ustun tomonlarini namoyon qila olishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim, O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur. Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti. 1992 yil.
2. O'zbekiston tarihi telekanali. 22-dekabr. Zarifboy Ibodullaev. Tibbiyot fanlari doktori, professor.
3. Aziziddin Nasafiy. «Xaqiqatlar qaymog'i» kitobidan tarjima. 1995 yil. Toshkent. "Kamalak" nashriyoti.
4. Abu Homid Muhammad G'azzoliy "Kimyoyi Saodat-yoki Ruh Xaqiqati", Toshkent, "Adolat" nashriyoti, 2005 -yil.
5. Injil. Qozog'iston, Olmaota, "Vifaniya" nashriyoti. 1992 yil.

